

**A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida
“Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosini
ta‘minlash yuzasidan
MA’LUMOTNOMA**

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida 2025-yilning yanvari-fevrali oylarida Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo‘limi tomonidan institutning bo‘limlari, kafedra professor-o‘qituvchilari va boshqa mas’ul xodimlarga O‘zbekiston Respublikasi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi 2024-yil 5-iyundagi 931-sonli qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyati yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xodimlarning deklaratsiya to‘ldirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi, kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarda korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi, kontragentlarni tekshirish ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish va reestrini yuritish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi, shuningdek davlat dasturlarining ijrosi haqida umumiy hisobot yuritish, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish reestrini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo‘limi tomonidan **178 nafar** institut xodimlari to‘ldirgan deklaratsiyalar o‘rganib chiqildi va muassasa xodimlarining lavozimiga munosibligini ko‘rib chiqish bo‘yicha qonunchilikdagi cheklovlar (*tadbirkorlik subyektida ta’sischiilik asosida faoliyat yuritib kelayotganligi*) holatlari o‘rganildi.

Natijada, xodimlardan **9 nafari** tadbirkorlik subyektining muassisi (*ishtirokchisi*) ekanligi aniqlandi.

Ko‘rsatilgan shaxslarga mavjud qonunchilikdagi davlat fuqarolik xizmatini o‘tash bilan bog‘liq cheklovlar xususida tushuntirish olib borilgandan keyin ular tomonidan ishdan tashqari vaqtda tadbirkorlik yoki haq to‘lanadigan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish to‘xtatilmoqda va asoslovchi hujjatlar taqdim etilmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va
huquqiy nazorat bo‘limi boshlig‘i
2025-yil 17-mart**

Sh. Xamrayev

Sh. Xamrayev